


# YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ

# 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR CHIROG'



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

 TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.  
 +998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00  
 WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ

 IYUN №53

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
8-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-8**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 53-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 9 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжонова (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

**1. Vafoqulova Go'zal Ochilovna**  
CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDA ADIBNING  
TASVIR MAHORATI .....7



## АДАБИЁТ

### CHO'LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA ADIBNING TASVIR MAHORATI

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Cho'lponning “Kecha va kunduz” romanida adibning mahorati va asar tahliliga atroflicha to'xtalib o'tilgan

**Kalit so'zlar:** Ijodiy biografiya, shoirona ko'ngil, mingboshi, matn mohiyati, o'zlik va dunyoni anglash, ma'rifat va hurlik.

«Kecha va kunduz» romani Cho'lpon ijodiy biografiyasida ham, o'zbek romanchiligi tarixida ham alohida o'rin tutadi. Chunki bu romanni o'qiganda uni shoirona ko'ngil egasi yozgani, ko'p o'rinlarda yozuvchining lirik kayfiyati yaqqol sezilib turadi. Asar boshidagi oddiy bir oilaning ma'naviy muhit tasviri bora-bora romanning badiiy matni mohiyati-negizida o'zlik va dunyoni anglash, ma'rifat va hurlik kabi millat taqdiriga bog'liq haqiqatlar bilan uyg'unlashib ketadi. Xususan, romandagi Akbarali mingboshining o'z baloyi nafsigga o'ralashib, aysh-u ishratga berilishi, Miryoqub epaqaning ijtimoiy-ma'naviy tarafdin dinamik o'sa boshlash jarayoni ko'rsatiladi. Oxir-oqibat beg'ubor bir qiz Zebining ayanchli qismati kitobxon qalbini larzaga soladi. Roman uchun tanlangan «Hamal keldi – amal keldi» degan epigrafga ham diqqat qilgansiz, albatta. Hamal – shamsiy yil hisobiga ko'ra bahorning birinchi oyi, unda muzlar erib, tabiat qish uyqusidan uyg'onadi, yerga urug' qadaladi va ko'katlar unib o'sa boshlaydi.

Shunda «yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon» yugura boshlaydi. Adib xuddi shu holatni juda ta'sirchan, tabiiy va maroq bilan shoirona tasvirlaydi. «Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalar-da, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi...» Tasvir endi o'n besh yoshga qadam qo'ygan yoshgina Zebining bahor fasliga mos ochila boshlagan ko'ngil mayl-istaklariga borib taqaladi. Zebi barcha yoshlarga o'xshab o'ynab-kulishni, dala-qirlarga chiqishni – kengliklarni orzu qiladi. Eshigini taqillatib hovliga kirgan dugonasi Saltanatning ko'ngli ham Zebining kayfiyatiga mos – bahor nafasiday pokiza, top-toza. Zebi dugonasining taklifidan juda mamnun. Yozuvchi shu mamnuniyatni: «Ko'ngil, orzu, sevgi, sevinch... bular hammasi Saltiga tomon uchadi, unga tomon otiladi, uni o'rab, uni aylantirib, uni quchadi!» deya shoirlanib yozadi. Ammo Zebining otasi Razzoq so'fining tundligi, qovog'idan qor yozib turishi romanning birinchi sahifalaridayoq o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etadi. Zebi, Saltanat, Qurvonbibilar bir taraf, Razzoq so'fi o'z tabiatiga ko'ra tarozining ikkinchi pallasida turadigan qahramon sifatida beriladi. Muallif ta'biricha, Razzoq so'fi «o'z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o'z ko'ngli qadar tund va xo'mraygan bo'lishini» istaydi. Uning ruhiyatidagi «bulutli havo» tabiatdagi bahoriy uyg'onishga, yoshlikning zangor quvonchiga zid qo'yiladi. Eng qizig'i shuki, Razzoq so'fi bomdod namozidan uyiga kirgan mahali hovlisida qizlarning quvalashib shovqin solayotgani ustidan chiqadi. «Bu nima qiyomat!» – so'fining mana shu gapi bahonasida yozuvchi ortga qaytib bir yo'la Razzoq so'fi o'tmishi va xos tabiati bilan o'quvchini tanishtiradi. Razzoq so'figa doir tasvirlardan badiiy qahramonning individual qirralari ochila boradi. Uning kamgaplighi, «indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam» ekaniga urg'u berilar ekan, undagi o'ziga xoslik qisqa nutqi vositasida ham kuchaytiriladi.

So'fi «o'zidan ulug' va kuchlilar gapirsa – «hovva-hovva», deb tasdiqlaydi; «o'zidan past va kuchsizlar gapirsa – «yo'q, yo'q», degan ma'noda» inkor etib boshini chayqaydi. Razzoq so'fining turmush tarzi, oilaviy tutumi ham, xotinini «Fitna» deb chaqirishi, Eshon boboga ixlos



qo'yishlari, qishloqqa qaytishga taklif qilib kelgan o'gay akasi bilan muomala-munosabatlari – bularning barchasi Cho'lponning iste'dodli nosir sifatidagi mahorat egasi ekanini ko'rsatadi. So'fining «Nima bu qiyomat!» degan gapi Saltanatning taklifiga ko'ra Zebining qishloqqa – Enaxonning uyiga mehmon bo'lib borish masalasini yana ham chigallashtiradi. Ruxsat tegishi yo tegmasligi muammosi o'rtaga qalqib chiqadi. Oraga so'fining tilini biladigan Quvonbibi tushib, vaziyatni yumshatadi. So'fi bir shart qo'yib ko'nadi: «Ovozim bor, deb ashulaga zo'r bermasin. Nomahramlarga ovozini eshitdirsa, rozi emasman». Ushbu gap romanning muhim ochqich jumalari sirasiga kiradi. Chunki Zebining keyingi taqdiri tasvirida, roman voqealarining o'zaro bog'lanishida uning shirali ovoz bilan ashula aytish detali katta ahamiyat kasb etadi. Mehmondorchilikka borish uchun ruxsat tegishini adib bir jumla bilan «Qafasning darichasi ochildi» deya ifodalaydi. Qishloqqa qarab yo'lga chiqilar ekan, aravakash O'lmasxon o'zicha qo'shiq xirgoyi qiladi. Gap tabiiy ravishda Zebining ovoziga borib taqaladi. Garchand otasining tanbehini esida tutsa ham, Saltanat qo'yarda-qo'ymay Zebini qizlarning ashulasiga qo'shilishga ko'ndiradi. E'tibor berish lozim bo'lgan jihat shundaki, adib «ovoz» so'zi yoniga bir nechta sifatlashlarni keltirish bilan cheklanib qolmasdan, uni «eng yorug' yulduz»ga qiyoslaydi. Bu badiiy usul esa tasvirning tiniqlashuvini ta'minlaydi. Ta'kidlash lozimki, Cho'lpon o'z ijodida oy, quyosh, yulduz kabi osmon jismlaridan juda unumli foyda andi. Qizlarni aravasiga ortgan O'lmasxon shahardan qishloqdagi manzilga kechqurun etib boradi. Adib bu orada ham bir necha marta o'ziga suyakli ramz va detallarga murojaat qiladi. O'lmasxon bilan Zebini bir muddat uxlab yotgan kampir oldidagi hayajonga to'la daqiqalari va yosh yigitning tabassumini ham «oy yorug'i»da ko'rsatadi. Qizlar ichkari kirgandan keyin aravada qolgan O'lmasxon «ajib va shirin xayollar» og'ushida «ko'kdagi oyga qarab, yerdagi oyni» o'ylaydi. Ichkaridagi holat tasvirida ham shunga monand manzara gavdalanitirilgan: qalbidagi «yangi, begona va shirin hislarni» anglayolmay «hayron bo'lgan birov» ham «ko'kdagi oyga qarab, erdagi «toy»ni o'ylar va yuzlari anorday qizarardi...». Tabiiyki, hamma uxlaganida yolg'iz uyg'oq qolgan va haligi sof tuyg'ularni boshidan kechirayotgan Zebi ekanini o'quvchi hech qiynalmasdan tanib oladi. Bunday lirik his-tuyg'ular ifodasiga uyg'un tasvir Cho'lpon nasriga xos uslubning bir qirrasini namoyon qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. B.To'xliyev va boshqalar. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. (2-qism) T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018
2. Cho'lpon. “Kecha va kunduz” -T.: “G'. G'ulom”, 2018.

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 8-ҚИСМ

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2023

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000